

PREMCHANDNING “FIDOYI” ROMANI TARJIMASIDA MUQOBILSIZ LEKSIKANING AKS ETISHI

Ahmedova Lola.

Qiyosiy tilshunoslik lingvistik tarjimashunoslik

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Hindiston adabiyoti juda qadimiy va boy o‘tmishga egadir. Har bir hind yozuvchisi bir dunyo. Hindiston ko‘p millat va ko‘p elatli mamlakat bo‘lib, hindlarda bir-biriga o‘xshamagan til va shevalar mavjud. Shuning uchun hind yozuvchi va shoirlari asarlari tarjimasi juda katta mehnat va mashaqqatni talab etadi. Shunday bo‘lsa-da, ko‘p yillar davomida hindshunos tarjimonlar o‘quvchilar e’tiboriga taniqli hind shoir va yozuvchilari asarlarini taqdim etib kelyaptilar.

Hindiston adabiyotidan ilk bor 1925-yilda Rabindranat Tagorning “Suba” hikoyasi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida chop etilgan. Hindiston adiblarining asarlari, asosan, 1950-60 yillar oralig‘ida ko‘p tarjima qilingan. 1958-yilga kelib asarlar aslyatdan tarjima qilina boshlangan. Hozirgi kunda o‘zbek kitobxoni Tagor, Yashpal, Krishan Chandr, Amrita Pritam, Premchand kabi hind adabiyotining ulug‘ namoyandalari asarlarini bevosita aslyatdan o‘girilgan holda o‘qishga muyassar bo‘ldi. Jumladan, ularning hayoti va ijodi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida chuqur o‘qitilib kelmoqda¹.

Qadimiy tarix va boy an’analarga, ko‘pincha bir-biriga o‘xshamagan turli millat va elatlarga xos rang-barang milliy urf-odat va rasm-rusumlarga, ko‘pdan-ko‘p shevalarga ega hind adabiyoti, badiiy tarjimada qator muammolarni keltirib chiqaradigan, tarjimonlarni qiynab qo‘yadigan hal qilishi zarur bo‘lgan masalalari behisobki, bir necha magistrlik dissertatsiyalarini aytmaganda, ular hali maxsus o‘rganilgan emas. O‘zbek tarjimashunosligida o‘z yechimini kutib yotgan ana shunday muammolardan birini – hind adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjimada muqobilsiz leksika va milliy koloritni qayta yaratish masalasini mashhur hind adibi Premchandning “Fidoiy” romani tarjimasi misolida, ayniqsa, yaqqol guvohi bo‘lish mumkin.

“Fidoiy” romanidagi muqobilsiz leksikaning tarjimada ifodalanishini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. dinga oid so‘zlar;
2. ijtimoiy kelib chiqishga xos so‘zlar, kastalar nomlari;
3. taom va milliy iste’mol mahsulot nomlari;
4. liboslar nomlari;
5. o‘simlik va daraxt nomlari;
6. narsa va buyum nomlari.

¹ Ходжаева Н. Премчанднинг Севги инъоми романи таржимасида миллий колоритнинг берилиши. Магистрлик диссертацияси. –Тошкент: ТошДШИ,2009. – Б. 8.

Hind madaniyatining yana bir o'ziga xos tomoni bo'lgan diniy masalalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan asosiy qiyinchiliklar sirasiga dinga aloqador tushunchalar ham kiradi. Ayniqsa, Hindiston ko'p millatli davlat bo'lishi bilan bir qatorda ko'p dinli hamdir. U yerda aholing ko'p qismi hinduizm, islom, xristian, buddizm, hamda boshqa dinlarga e'tiqod qilishadi. O'zbek tilida ham diniy istiloh tushunchalarni ifodalovchi so'zlar talaygina. Shunday bo'lsa-da, diniy istiloh tushunchalarning tarjimasida qator muammolarga duch kelamiz. Diniy istiloh tushunchalarning o'rnini topib, har bir dinga tegishli tushunchalarni tarjima qilishning o'ziga yarasha ba'zi bir murakkabliklari mavjud. Shuning uchun diniy istiloh tushunchalar tarjimasida so'zning ekvivalenti topiladi yoki transliteratsiya usulidan foydalaniladi

Hozirgi kunda Hindiston xalqining asosiy qismi hinduizm diniga e'tiqod qilsa, 15,1 foizi, ya'ni 173 million aholisi islom diniga e'tiqod qiladi². Asarda hinduizm diniga xos bo'lgan ko'plab so'zlarni uchratamiz.

Masalan:

राम नवमी के दिन सुमन कइ सहेलियों के साथ एक बड़े मंदिर में जन्मोत्सव देखने गई।

Tarjima:

Tangri Roma xotirasi eslanadigan kuni Suman bir necha dugonalari bilan *mandir*ga tomosha ko'rgani bordi.

Yuqorida keltirilgan misolda tarjimon mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Sababi unga matn ostida iqtibos keltirib, "*Mandir*-hindlar ibodatxonasi" deya izohlangan. Agar uni shunchaki ibodatxona ibodatxona deb tarjima qilinganda, kitobxon uchun tushunarsiz hodisa yuz berishi mumkin edi. Chunki ibodatxona deganda turlicha ibodat maskanlarini tushunish mumkin. Masalan:

Ibodadxona – cherkov, masjid, mandir गिजा, मसजिद, मन्दिर

Ayniqsa, hindlarning ko'p dinli xalq ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, o'quvchida ikkilanish paydo bo'ladi. Ibodatxonani keng va tor ma'noda tushunish mumkin, chunki keng ma'noda ibodatxona – xristian diniga xos bo'lgan ibodat maskani cherkovni ham, islom diniga xos bo'lgan ibodat maskani bo'lgan masjidni ham tushunish mumkin. Biroq *mandir*aynan hindlar, hinduizm diniga e'tiqod qiluvchi din vakillarining ibodatxonasi sanaladi.

Dinga oid bo'lgan tushunchalardan yana biri bu – tabaqani bildiruvchi *hollardir*. Ammo "*tilak*" so'zi xol ma'nosini bermaydi. "*Tilak*" – hindlarning tabaqa (kasta) yohud oqim (sekta)ga tegishliligini bildiruvchi belgi. Ushbu belgi peshona yoki badanning boshqa joylariga bo'yoq bilan qo'yiladi. Turmushga chiqqan ayollar peshonasiga qizil bo'yoqdan dumaloq belgi qo'yiladi. Bu yerda "dumaloq belgi" deb berilsa, adekvat tarjima xosil bo'lardi.

Masalan:

²<http://www.google.com>

गजाधर-तो तुम ने उन लोगों के बड़े-बड़े तिलक-छापे देखकर ही उन्हें
धर्मात्मा समझ लिया?

Tarjima:

Shunday de, – dedi kesatgan ohangda Gajodhar, sen manglayidagi shapaloqdek-shapaloqdek qashqa *tilak*lariga qarab ularni avliyo deb o‘tiribsanmi hali?

Tarjimon ushbu so‘zni tarjima qilish uchun o‘zbek kitobxoniga tushunarli bo‘lishi maqsadida unga matn ostida iqtibos keltirib “*tilak* – tabaqani bildiruvchi hol” deb izohlagan.

Diniy kitoblarning muayyan din vakillariga mansubligi ularning nomlaridan ma’lum. Boshqa din vakillari lafzida ular odatda yo o‘z talaffuzlarini qisman yoki to‘la saqlab qoladilar yoki tillarida mavjud bo‘lgan o‘zgacha talaffuzli variantlar bilan almashtiriladi³. Shunga ko‘ra, boshqa barcha diniy kitoblar nomlari transliteratsiya usuli bilan tarjima qilingan.

Masalan:

वेद और शास्त्र की सनदें नकल करते फिरते हैं।

Tarjima:

*Veda va shastr*lardan rivoyatlar zamzami qilishgani-qilishgan.

Hinduizm dinining muqaddas kitoblari *veda va shastr*lardir. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismi islom diniga e‘tiqod qilganligi sababli muqaddas kitob ham “Qur’oni Karim” hisoblanadi. tarjimon shuni hisobga olib, o‘zbek kitobxoni uchun notanish bo‘lgan ushbu leksikani matn ostida iqtibos keltirib, “*veda va shastr* – hindlarning muqaddas kitobi” deb izoh keltirib o‘tgan.

Hindiston qadim-qadimdan buyon turli xil ta’limotlar keng tarqalgan davlat sifatida ham butun dunyoga mashhurdir. Ayniqsa, falsafiy ta’limotlar ahamiyatga ega. Asarda ham ushbu ta’limotlar haqida so‘z boradi.

Masalan:

अभी तक आप तांत्रिक विद्या की बात भीन पूछते थे।

Tarjima:

Haligacha sizlar *tantrta* ‘limotining nima ekanligini tushunmaysizlar.

O‘zbek lingvomadaniyatida bunday ta’limotlar mavjud emas. Shuning uchun tarjimon uni matn ostida iqtibos keltirib, “*Tantr* – Hindistonda keng tarqalgan falsafiy ta’limotlardan biri” deb izohlagan.

Asl vatani Hindiston bo‘lmish “kasta” tushunchasi ham hindlarga xos hisoblanadi. Kasta tizimi Hindistonda paydo bo‘lgan va keyinchalik boshqa ba’zi bir davlatlarga tarqalgan. Ushbu tizim bizning xalqqa yot tushuncha. Hindcha asarda albatta, “kasta”, “varna” degan tushunchalar bo‘lishi tabiiy. Ana shunday

³Мусаев.К. Таржима назарияси асослари. – Тошкент:Фан, 2005. – Б. 108.

tushunchalar tarjimasi hindiy tilidan o'zbek tiliga qanday o'girilganligi haqida ham ba'zi bir misollar tahlil qilindi.

Masalan:

यदि ठाकुर जी को हार माननी पड़ी, तो केवल एक अहीर से जिस का नाम
चैतू था।

Tarjima:

Qarangki yurtni o'tqizib-turg'izadigan *thakur*dek bir odamning yuziga kelib-kelib, allaqayoqdagi bir *ahir* chol oyoq bosdi.

Kasta ta'limotiga ko'ra, inson qaysi kasta vakili bo'lib dunyoga kelsa faqat o'sha kasta vakili bo'lib hisoblanadi va unda belgilangan kasb bilan shug'ullanadi. U kastasini ham bajaradigan ishini ham o'zgartirolmaydi. Boshqa davlatlardan har qanday shaxslar o'zi istagan kasbni tanlash imkoniyatiga ega, lekin bu narsa kasta tizimiga xos emas. Yuqoridagi misolda kasta tizimining ikki vakili keltirilgan bo'lib, muallif uni matn ostida iqtibos keltirib, shunay izohlaydi: "*Thakur* – oliy, o'qimishli, *ahir* – podachi". Boshqa xalqlarda bu tizim mavjud emas, har qanday odam podachilik qilishi mumkin, lekin kasta tizimiga binoan hech qaysi "*ahir*" podachilikdan boshqa yumush bilan shug'ullanmaydi.

Shu o'rinda bir narsaga e'tiborni qaratsak: "kasta" va "kasb" bir xil ma'noli so'z emas. Shuning uchun tarjimada "podachi, molboqar" deb aniqlik kiritilsa fikr aniqlashar edi. Chunki "kasta"ni o'zgartirib bo'lmaydi, "kasb"ni esa o'zgartirsa bo'ladi. "Kasta" bu portugal tilidan kelib chiqqan so'z bo'lib, nasl, avlod degan ma'nolarni anglatadi⁴. Kasta Hindiston va ba'zi sharq mamlakatlarida o'z a'zolarining nasabi, huquqi, urf-odatlar va kasblariga qarab pog'onaviy tarzda alohida tabaqaga ajralgan ijtimoiy guruh, toifa. "Kasb" esa biror narsani o'rganish, egallash, foyda, hunar, mashg'ulot kabi ma'nolarni beradi.

Masalan:

पासी, आलिहाजा, भर वगैरह भी इसी जेल में आते हैं।

Tarjima:

Posiy, oliyhoja, *bhar*lar ham shular jumlasidandir.

Ushbu misolda ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan kasta tizimi haqida so'z boradi. Bu yerda ham *bhar*lar kasta tizimining eng quyi qatlami bo'lib, muallif uni matn ostida iqtibos keltirib, quyidagicha izohlaydi: "*Bhar*lar – past tabaqa vakillari".

"Taomlar nomlarini talqin etish ham san'atkordan katta mas'uliyat talab qiladi. Har bir xalqning bobomeros milliy taomlari boshqa xalqlarnikidan nafaqat tayyorlanish usuli, balki mazasi hamda ko'rinishi bilan ham farq qiladiki, tarjima jarayonida asliyatda tilga olingan taom nomini tarjima tili sohiblari iste'mol qiladigan taom bilan almashtirib qo'yish ham, uni biror tasviriy vositasiz transliteratsiya qilish ham kitobxonga asliyat sohibi taomi haqida aniq tasavvur

⁴Ходжаева Н. Премчанднинг Севги инъоми романи таржимасида миллий колоритнинг берилиши. Магистрлик диссертацияси. –Тошкент: ТошДШИ,2009. – Б. 25.

berishga ojizlik qiladi”⁵. Quyidagi jumlada hindlarning milliy taomlari tarjimasi keltirilgan:

किसी को यंत्र देते,किसी को भगवदगीता सुनाते और जिन लोगों की श्रद्ध इन बातों पर नयी, उन्हें मोठे आचार और नवरत्न की चटनी खिलाकर प्रसन्न रखते।

Tarjima:

Biriga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatsa, boshqasiga “Bhagavadgita”dan rivoyatlar so‘zlaydi, quruq gaplardan qanoat hosil qilmaydiganlarni esa *ochar* va turli yeguliklar bilan siylab, ko‘nglini ovlardi. Ushbu misolimizda, *Ochar* so‘zi asli o‘zbeklarning milliy taomi bo‘lib, boburiylar davridan qolgan hisoblanar ekan. Tarjimon uni to‘g‘ri tarjimasini topa bilgan. Chunki bu taom ishtaxa ochuvchi hisoblanib, Bobur davrida unga shunday nom berilgan. Uni izohlash maqsadida esa matn ostida iqtibos keltirib o‘tadi. Ushbu so‘z o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lib, *Ochar*⁶ – mevadan, ko‘pincha behidan pishirilgan murabbo degan ma‘noni bildiradi, hamda shu tarzda o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan.

चारपाई से उठ, बैठ, फिर पानदान खेलकर पान लगाने लगे।

Tarjima:

Birdan joyidan irg‘ib turdi-yu, so‘ng pondonni olib, *pon* o‘ray boshladi. Har bir millat o‘zining milliy taomlari bilan bir qatorda, o‘z milliy yegulik mahsulotlariga ham ega bo‘ladi. Shulardan biri “*pon*”dir. *Pon*– betel yaprog‘iga ziravor sepib chaynaladi, uning muqobili mavjud emas.

Tarixiylik va milliylikning aks etishida eng avval hammaning ko‘z oldiga biron-bir millatga xos libos yoki biron davrga tegishli bo‘lgan kiyim-kechak va taqinchoqlar gavdalanadi. Bunday so‘zlarni tarjima qilayotganda tarjimonni ko‘proq o‘zga xalq kishisiga tarjima tili sohibi libosini kiygizib qo‘yish xavfi kutadi. Milliylik juda nozik tushuncha. Bu borada arzimasi bir xato ba’zida butun bir millat haqida noto‘g‘ri tasavvur tug‘dirib qo‘yishi mumkin.

Hind milliy liboslari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, hamda ularning nomlanishi ham o‘ziga xos.

Milliylikni o‘zida aks ettiradigan va muqobilsiz so‘zlar jumlasiga liboslar nomlari ham kiradi.

Masalan:

कचहरी जाने के लिए अचकन पहन रहे थे, एक हाथ, आस्तीन में था, दूसरा बाहर।

Tarjima:

Mahkamaga jo‘nashdan oldin *achkan*ni kiyayotuvdi, bir qo‘li yeng ichida, bir qo‘li tashqarida edi.

Achkan – erkaklarning ustki kiyimi. अचकन (*achkan*) – hind erkaklarning bir qator tugmali kiyimi.

⁵Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 101.

⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд–Тошкент: Ўзб.Мил.Энци, 2006. – Б.162.

Masalan:

कोई अपना बड़प्पन दिखाने के लिए उन से पैर दबवाता, कोई धोती छटवाता।

Tarjima:

Ba'zi dimog'dorlari mening kimligimni ko'rib qo'y degandek, ularga oyoqlarini uqalatar, boshqa birovlar esa *dho'tiy*larini tozalatib olar edi.

Dho'tiy – erkak va ayollarning yengil ustki kiyimi. Uni yengil ustki kiyim deb tarjima qilinishi, biroz g'alizlikka olib kelgan. Tarjimada धोती – (“*Dho'tiy*”)so'zi matn ostida tushuntirib o'tilgan, lekin izoh biroz g'aliz chiqqan. “*Dho'tiy*”– erkaklarning belidan pastga qarab o'raladigan kiyimi⁷. Chunki *dho'tiy* ustki kiyim emas, aksincha beldan pastga kiyiladigan shalvar hisoblanadi. Bundan tashqari tarjimon uni matn ostida iqtibos keltirganda “erkak va ayollarning” deb o'g'irganini ham mutarjimning kamchiliklaridan biri deb hisoblaymiz. Chunki *dho'tiy* faqatgina erkaklargagina xos bo'lgan milliy libos bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan tarjimon uni shalvar deb berganda maqsadga muvofiqroq bo'lar edi.

Kitobxon ba'zida asar o'qish davomida o'zbek lingvomadaniyatiga yot bo'lgan so'zlarga duch keladi. Bu paytda tarjimondan uni izohlash talab qilinadi.

Masalan:

यद्यपि सदन ने सुमनबाई को अपना परिचय ठीक नहीं दिया, उस ने अपना नाम कुंवर सदनसिंह बताया।

Tarjima:

Garchi Sadan Sumanboiyga o'zini tuzuk-quruq tanitmasa-da, ismim *kunvar* Sadansinkh bo'ladi degandi.

Ushbu misolda qahramon “*kunvar*” so'zi bilan o'zing hali oila qurmagan yigit ekanligini ta'kidlaydi. Uni tarjimon matn ostida iqtibos bilan “*Kunvar* – bo'ydoq, uylanmagan yigit” deb izohlagan. Lekin o'zbek tilida aynan shu so'zning muqobili mavjud emas, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri ismga qo'shilishi natijasida oila qurmagan, bo'ydoq yigit ekanligini bildirib bo'lmaydi. Masalan: “*Kunvar Aziz Berdiyev*”, yoki “*Bo'ydoq Aziz Berdiyev*”, yokida “*Uylanmagan yigit Aziz Berdiyev*” deb bo'lmaydi. “*Uylanmagan, bo'ydoq*” ma'nosini yigit so'zi beradi. Lekin uni ham ismga qo'shib ishlatib bo'lmaydi (“*Yigit Aziz*”). Shu sababdan tarjimon uni ifodalashda matn ostida iqtibos keltirib, o'quvchi uchun g'alizlik paydo bo'lishini oldini olgan. Muqobilsiz leksikaning berilishi, tarjima jarayonida uni ifodalashdagi qiyinchiliklar, bu muammoni bartaraf qilish yo'llari o'rganib, bunda asosan:

- tarjima tilida ekvivalentini berish;
- transliteratsiya;
- matn ichida izoh berish kabi usullardan foydalanganligini ko'rish mumkin.

⁷Хинди-русский словарь. В двух томах. / А. С Бархударов, В. М Бескровный и др. Под ред. В.М. Бескровный – М.: Советская энциклопедия, 1972. – Б. 835.

Musiqa asboblari nomlarini, kiyim, bayram, taom, unvon va lavozim nomlari, ijtimoiy kelib chiqishi kabi muqobilsiz soʻzlarni ifodalash uchun ularning muqobil variant bilan ifodalash va transliteratsiya usullari orqali tarjima qilinganligi aniqlandi. Tahlil jarayonida musiqa asboblari nomlari, oʻsimlik va daraxt nomlari, oʻlchov birliklari nomlari va boshqa bir qator muqobili boʻlmagan soʻzlar, muqobilsiz leksikalar oʻrganildi. Mutarjim tarjimada muqobilsiz leksikani asosan matn ostida izoh berish yoʻli bilan oʻgʻirganligini, baʼzi soʻzlarni esa matn ichida izoh berib va izohsiz qoldirib ketgan holatlarini ham kuzatish mumkin.

Adib hamda tarjimon oʻrtasida bir-biriga boʻlgan ruhiy yaqinlik natijasida, tarjima asar muvaffaqiyatli chiqadi. Tarjimon buning uchun tarjima nazariyasini yaxshi bilishi, uning metodlaridan samarali foydalanishi, shakl va mazmun birligini taʼminlashi lozim. Mahoratli tarjimon kitobxondan kelib chiqib tarjimani amalga oshiradi. Buning uchun tarjima usullari, tarjima shakllari va turlarini yaxshi oʻzlashtirgan boʻlib, yaxshi tarjimaning asosiy kafolatlaridan biri boʻlib hisoblanadi.